

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorij tilini o'rgatish metodikasi

SamDChTI

II fakultet II talabasi

S .N. Marjona

Ilmiy rahbar :N.N Zubaydova

@salohiddinovamarjona974@gmail.com.

Tel: +998944217004

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda chet tillarni o'rganish zaruriyat darajasiga chiqmoqda. Bu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun chet tili o'qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion usullari haqida to'xtalib o'tiladi.*

***Kalit so'zlar:** metodika , chet tili, boshlang'ich sinf, multfilmlar.*

***Abstract.** Nowadays, learning foreign languages is becoming necessary. This article focuses on effective, modern and innovative methods of foreign language teaching to increase students' interest in language learning in elementary grades.*

***Key words:** methodology, foreign language, primary class, cartoons.*

Bugun jahonda o'zining munosib o'rnini egallashga intilayotgan mamlakatimiz va chet elliklar bilan hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati kattadir. Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarga chet tillarni o'rgatish tizimi ancha yuksalgan va takomillashtirilgan. Maktablarda boshlang'ich sinflarga chet tilini turli xil yo'nalish uslublarda o'qitish bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatayotganda tilni o'rgatish grammatik tushunchalaridan boshlamaslik kerak. Bunday vaziyatda til o'rganayotgan bolaning charchashi va uning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi susayishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rganish qiyin vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli

boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini qiziqarli innovatsion metodlardan foydalangan holda o'rgatish mumkin:

Qo'shiq va she'rlar orqali eslab qolishi qiyin bo'lgan so'zlarni qo'shiq qilib aytganda so'zni eslab qolish bilan birgalikda og'zaki nutqi ham rivojlanadi.

Multfilmlar orqali o'rgatish. Bizga ma'lumki bolalar turli xildagi multfilmlarni ko'rishni yoqtiradi. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish multfilm gaplarini tushunmasada qahramonlar harakatidan ham so'zlarning ma'nosini anglashga va eslab qolishiga yordam beradi.

Qiziqarli o'yinlar orqali o'rgatish. Chet tillarini o'rgatishda turli xil o'yinlar orqali o'qitishning o'рни boshqachadir. Dars davomida turli xil o'yinlar o'ynatib turish, tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi va darsda faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarga yaxshiroq qatnashishga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni majburiyat sifatida emas, aksincha qiziqtirish orqali o'rgatish kerak va bu ularning kelajakda oladigan bilimlariga poydevor bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kenjaboyev A., Salomova G., Sohibov B. Masofaviy o'qitishning pedagogik asoslari. // «Zamonaviy ta'lim», 2014, 10-son. -3–7-b.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbligi. // «Zamonaviy Ta'lim», 2015, 4-son. -61–64-b.
3. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2006.
4. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006.